

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ODOBNOVA DARSLARINI TASHKIL ETISH

M. Abduxoligova,

*VXTXQTMOI Maktabgacha, boshlang'ich
va maxsus ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

Odobnoma- mustaqil Vatanimizning sog'lom avlodini ma'naviy tarbiyalashning ildizi bo'lgan asosiy fandır. Odobnoma fani ilmiy, milliy va umumbashariy qadriyatlar mazmun-mohiyatini bilishga, boy merosimizni o'rgatib, unga hurmat bilan qarash, ajdodlarimizning ibratli o'git va ta'limotlariga amal qilishga, islom dinidagi ma'naviy-axloqiy tushunchalarning mohiyatini to'g'ri tushuntirishga, mustaqillikni ko'rkam istiqbol va istiqboliga ko'makdosh bo'lishga chorlaydi. Odobnoma ilmini 1-sinfдан boshlab o'rgatishdan ko'zda tutilgan maqsad, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy an'analar, urf-odatlarini bilgan holda, ruhini pokiza saqlash, ota-onadan mamnun bo'lish va ularni hurmat qilish, tabiatni sevisht, ustozni uig'lash, milliy g'ururimizni himoyalash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Davlat ta'lim standartida bayon qilingan talablarni bajarishdan iborat.

1. Ta'lim dasturlari bajarilishining majburiyligi.
2. O'quchilar, o'quv yuklamalarining maksimal hajmi.
3. Bitiruvchilar o'quv ta'lim saviyasi.
4. Aql - zakovat vositasida amalga oshirilgan xalq donishmandligi, xalq og'zaki va yozma yodgorliklari. Islom dinining muqaddas kitobalri-Qur'oni Karim va Hadisi Sharif.
5. Mutaffakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning asarlari.
6. Mustaqil respublikamizning qonun qoidalari.
7. I.K.Karimov asarlari.
8. Davriy matbuot materiallari.

O'quvchini mustaqil fikrlash, o'z-o'zini aniqlash, himoya qilish, siyosiy-huquqiy ongini oshirish, odobnoma fanini o'qitishning sifat-samaradorligini

oshirish borasida xalq ta'limi vazirligi odobnoma o'qitishning yangi texnologiyasini qo'llash masalalarini mutaxassislar oldira qoydi.

Ana shu vazifalarni bajarish maqsadida ta'lim tizimida davrga mos yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqildi. Pedagogik texnologiya degani o'zi nima?. Grekchada «tkxno»-san'at va logos-tushuncha, bilim ma'nosini anglatadi. Yangi texnologiya deganda biz ta'lim jarayonlarini amalga oshirish vositalari va yo'llari haqidagi bilimlar yig'indisini nazarda tutamiz. Pedagogik texnologiyalarning asosiy ma'nosi o'quvchilar o'zlashtirishini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini oldindan loyihalashdan iborat. pedagogik o'qitishning yangicha usuli bo'lib, ta'lim va chuqur bilim berishga, ularni mustahkamlashga, bilimdonligini oshirishga qaratilgan jarayondir. Odobnoma o'qitishda o'qituvchi mahoratining asosiy tamoyillari.

1. Muomila.
2. Adolat bilan ish tutish.
3. Pedagogik ta'sir ko'rsatish.

“Bola aziz-odobi undan aziz”- deydi xalqimiz. Chindan ham bola aziz bo'lganidek uning tarbiyasi xulq-odobi, zamonamizga xos yetuk kishi bo'lib etishishi har doim muhim masala bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Hadisi Sharifda shunday deyilgan: Farzanlaringizga izziat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz. Tangri saxiydir, saxiylarni do'st tutali. Axloqi oliy kishilarni yoqtirib, axloqsizlarni yoqtirmaydi. Jamiyatda va oilada ota-onaning, yoki kattalarning yurish-turishidan tortib, so'z madaniyati, kiyinishi, kishilar bilan muomilasi, hatto atrof muhitga munosabati va shu singari oddiy bo'lib ko'rinadigan holatlar ham bola tarbiyasiga katta ta'sir qiladi. o'zbek milliy o'rf-odatiga ko'ra, bolalarning tabiatiga baho berilganda uning ota-onasidagi mavjud xislatlarga nisbat berib baholanadi. Qadimdan shunday gap qolgan «Qush uyasida ko'rganini qiladi yoki ha ota-onasiga tortibdi deyishadi. Har bir ota-ona o'z farzandiga yaxshi xislatlarni bolaligidan singdirgani ma'qul. Shunda u ulg'aygan sayin oriyatli, nomusli, burchni his qiladigan, odobli samimiy bo'lib

o'sadi. Hadisda «Sabr va bardosh tangridan, shoshqoloqlik esa shaytondandir deyilgan.

Mirzakalon Ismoiliy o'zining axloq-odob mavzusidagi «Inson husni» asarida shunday deydi:

Yomon yursang ketar baxting qo'lingdan
Adashma-hech to'g'ri yurgan yo'lingdan
Yomon xulqning oqibati ko'p yomon
Jazo topgung axir bir kun beomon.

Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhu vassalam ezgu g'oyalari va niyatlarini ifoda etuvchi hadislar o'quvchi yoshlarni shubhasiz mangu hayot falsafasiga oshno etadi, imonli va pokli bo'lishga, haqiqat va adolat tantanasi uchun kurashish, jaholat va qabihli yo'lni to'sishga undaydi. Sharqda, jumladan Turkistonda qadim-qadimlardan boshlab, maktabda bolalar Alifbo kursini tugatishi bilan axloq-odobga oid asarlar va hadislardan namunalar o'qishga kirishganlar. Payg'ambarimizning aytgan hikmatli so'zlari-hadislarni o'qitish etti yoshdan boshlab o'rgatilgan. Keyinchalik maktab o'quvchilari uchun Hadislardan iborat qiroat kitoblari o'qitilgan. Bola tarbiyasining eng og'ir, mashaqqatli vaqti dastlabki tarbiyaning ona qo'liga topshirilgan vaqtidir.

Odam bolasining turmush maydonida egallagan sifatlarining barchasini ona qoynida berilgan tarbiyaning ozig'i deb bilmoq kerak. Dunyoda ham, oxiratga ham tinchlik tilagan kishi butun og'irliklarini kutargan, yuragiga millat va turmush urug'ini sochgan onasini rizoligini olishi, uni juda qattiq hurmat qilmog'i lozim. Shuning uchun ham hadislarda bu mavzuga alohida to'xtalib Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil, Jannat onalaringiz oyoqlari ostidadir, Ota-onalarining keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin, yoki agar ota ona birdaniga chaqirib qolishsa avval onangga javob qil? deyiladi.

Ma'lumki inson butun umr mobaynida ilmga tashna va uni o'rganadi, hayotning sir asrorlarini faqat ilm orqali bilib oladi. Ilm olishga rag'bat musulmon dunyosida juda keng targ'ib qilinadi.

Muborak Hadisda ta'kid qilinganidek: Ilm olish har bir musulmon er va musulmon ayol kishi uchun farzdir. Beshikdan to (lahadgacha) qabrgacha ilm oling, Ilmni hattoki Xitoyda bo'lsa ham o'rganing, Ilm olish ibodat qilishdan afzaldir, yoki bir soat ilm o'rganmoq, bir tun oyg'onib ibodat qilmoqdan xayrliroqdir. Bir kun ilm o'rganmoq uch oy ro'za tutmoqdan xayrliroqdir, Hadislari orqali doimo ilm o'rganishga, ilmga umrini baxshida etishga da'vat qiladi. dasturxonimiz ko'rki, ne'matlar sultoni non haqida ham hadisda alohida to'xtalib o'tiladi.

Hozirgi iqtisodiy tang sharoitda yoshlarga non haqida etarlicha bilim berish bu har bir ota-ona va o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Zero, birgina «Nonni hurmat qilingiz, Hadisi orqali Rasululloh non turmush dunyosida zarur bo'lgan narsalarning birinchisi bo'lganligidan ko'p o'rinda bug'doy ekishga, uning barakasini saqlab, hurmat qilishni buyurgan.

Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy: «Insonni go'zal amallar qilishga yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lishi uchun yetuk xulq lozim», degan edilar. Zero, «Odobnoma» fanining maqsad va vazifasi ham yosh avlod qalbiga odob-axloq me'yorlarini singdirishdan iboratdir.

Millatimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga jiddiy qarab kelishgan.

Oilada ota-onalar farzandlari bilan birga donishmand shoirlar yaratgan asarlarini tez-tez o'qib, mag'zini chaqishgan. Xalqimiz yaratgan didaktik mavzudagi asarlar, afsonalar va ertaklar, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu-lug'tit turk», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Xibbatul - haqoyiq», Kaykovusning «Qobusnoma», Navoiyning «Hamsa», «Mahbubul qulub», Sa'diyning «Guliston» va «Vo'ston» kabi durdona asarlari asosida ular o'z ma'naviy-axloqiy madaniyatlarini oshirishgan. Chunki, bunday qadriyatlarimiz ming yillik tarixiy sinovlardan o'tib, juda katta tajribaga egadir.

«Axloq — kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmuasidir. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofani shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb bilishgan».

Demak, har bir insonning, oilaning axloqiy madaniyati jamiyatda qabul qilingan bo'lib, ezgu insoniy fazilatlar yig'indisi — bu axloq.

Axloq fan sifatida birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu tomonidan kiritilgan. Ovro'pada axloq «etika» (odat, fe'l, fikrlash kabi ma'nolarni anglatgan) deb ataladi. Shu bois axloqni etika fani o'rganadi. Ilmiy-tarixiy va zamonaviy-hayotiy talablar nuqtai nazaridan bizda bu fanni «Axloqshunoslik», uning chuqurlashtirilgan ko'rinishi «Axloq falsafasi» deb atalgan. Bu fan axloqiy tarbiya sifatida komil insonni voyaga yetkazishda turli yo'llar va vositalarning umummilliy ko'rinishlarida ifodalaydi. Bu uchchala tushunchalar bir-biridan farq qiladi. Odob axloqning eng kichik qismi bo'lib, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqimiz ham o'zining go'zal milliy xususiyatlari bilan dunyo tan olgan hurmatga loyiqdir. Bular xushmuomalalik va ochiqyuzlilik, bag'rikenglik, qo'li ochiqlik, mehmondo'stlik, kichikka izzatda va kattaga hurmatda bo'lish, salomlashish va samimiylik kabi o'zbekona xislatlardir. Qadimqadimdan xalqimiz jamoa bo'lib yashab kelganlar va oila, mahalla, Vatan tushunchalarini, qarindosh-urug'chilikni muhofaza qilganlar. Millatlararo muloqot va muomala madaniyatida odob qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etgan.

Ulug* donishmandlarning odob haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: XI asrda ulug' adiblarimiz Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» va Yusuf Xos Xojibning «Qutadg⁴u bilig» nomli turkiy tilda yozilgan asarlarida hayotning abadiy emasligini, hadeb dunyo yig'ish bilan ovora bo'lmaslikni, yaxshi fazilatlar

egasi bo'lish lozimligini va o'ch olish, kek saqlash, yomonlikdan saqlanish kerakligini yozadilar. Ayniqsa, muomala madaniyatiga, tildan faqat yaxshi so'z chiqarishga odat qilish kerakligi haqida ta'kidlaydilar.

Bu kabi hikmatlar oradan qancha vaqt o'tsa ham, o'z qimmatini aslo yo'qotmagan, aksincha, hayotda to'g'ri uo'l tanlashimizga yordam beradi.

Xulq haqida ham alohida ta'rif bor. Xulq — oila, jamoa, mahalla-koy miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlar majmuasidir.

Yaxshi xulqli insonlar oilasida, qarindosh-urug'lar orasida, do'st-yorlar, mahallada hurmat-e'tiborda bo'ladilar. Ular oila a'zolariga mehribon, qo'lidan kelgan yordamini hech kimdan ayamaydigan, qo'shnilarning yaxshi va yomon kunlarida birga bo'ladigan, andishali-mulohazali, mehnatsevar, ochiqqo'l insonlardir.

Axloqda, axloqiy tarbiyada odoblilik — xushxulqlikka, xushxulqlilik — yuksak axloqiylikka aylanadi. Agar axloqiy tarbiya bo4masa, buning aksi bo'ladi, ya'ni odobsizlikdan — badxulqlikka, badxulqlikdan — axloqsizlikka otish mumkin.

Yoshlarimizda axloqiy madaniyatni shakllantirishda faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo4ib kelgan milliy mafkuramizga murojaat qilishimiz mumkin. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri muomala odobidir. So'zlashish va tinglash, suhbatlashish madaniyati inson hayotida katta ahamiyatga ega. Bu haqda buyuk ajdodlarimiz o'z asarlarida inson baxti uning jamiyatga keltirayotgan foydasi bilan o4chanishini alohida ta'kidlab o'tganlar. Dunyodagi barcha diniy ta'limotlarda ham inson odob-axloqi jamiyatda madaniy muhitni yaratishga katta xizmat qiladi, degan fikrlar berilgan. Ayniqsa, islom dini, islom madaniyati eng to'g'ri uo'l, deb topilgan.

Axloqiy madaniyatda etiket degan tushuncha bor. Etiketning qamrovi keng, u xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Bular kundalik hayotimizdagi etiket, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketlaridir. Sharqona etiketning o'ziga xos xususiyatlarida madaniyatli, tarbiya

ko'rgan kishi tanishlarini uchratganda samimiy salomlashishi, hol-ahvol so'rashishi kerak. Salomga alik olish farz hisoblanadi. O'zbeklarda salomlashish, ko'rishish, so'rashish, hurmat ko'rsatishning yigirmadan ortiq ko'rinishlari bor. Xalqimiz bir-biri bilan ko'rishganda ochiq chehra bilan, samimiy qo'l olishib ko'rishadi, bir davrada o'tirganlarida bir-birlarini tanimaganlar ham oila a'zolari nomlarini aytib, hol-ahvol so'rashadilar. Ba'zilar esa bu go'zal odatlarimizni mensimay, qo'li uchida ko'rishadilar. Qo'li ko'rishayotgan odamning yelkasida turib, yuzini boshqa tomonga burib ko'rishadiganlar ham uchrab turadi. Bu juda xunuk ko'rinadi.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham namoyon bo'ladi va u juda katta ahamiyatga ega. Har bir kasb egasi o'z kasbiy burch mas'uliyatini vijdonan his qilishi, o'zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbiy suiste'mol qilish singari illatlarga uo'l qoymaslik kerak. Har bir kasb egasi, eng awalo, o'z kasbini ilmiy-nazariy tomondan chuqur bilishi va o'z kasbini sevishi lozim. Har bir inson halol va vijdonli, iymoni butun bo'lishi, ishda ham, uyda ham o'zini kamtarin tutishi, Chiroyli muomala qilishi va hayoli, iboli bo'lishi lozim. Ayniqsa, rahbarlar madaniyati jamiyatimizda milliy madaniyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Rahbar shoshilinch hukm chiqarishi, jahl bilan ish ko'rishi, yolg'on so'zlashi, ikki yuzlamachilik, qo'pollik, axloqsizlik qilishi mutlaqo mumkin emas.

Go'zal axloq, yaxshi fazilatlar islom dinining asosidir. Ota-bobolarimiz bir necha asrlardan buyon islom dini qoidalariga amal qilib yashab kelmoqdalar. O'tmishda xalqimiz yuksak axloqiy fazilatlar egasi bo'lishgan.

Axloqiy tarbiyaning shakllanishida islom dini, Qur'oni karim, Hadisi sharif talablarini bajarish bilan xalqimiz axloqiy madaniyatiga ijobiy ta'siri bo'lganligini dunyo biladi.

Payg'ambarimiz Rasululloh (a.v.s) hadisi shariflarida «Haqiqiy musulmon ul kimsalardirki, uning qo'lidan, tilidan hech kirn jabr ko'rmaydi», deb marhamat qiladilar.

Quyida odamiylik haqidagi Hadislarni eslab o'tamiz, bu juda foydali:

O'zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko'r.

Odamlarga yaxshilik qilish va qarindoshlar bilan yaqin aloqada bo'lib so'rashib turish— bu savobi tez tegadigan xayrli ishlardandir.

Yaxshilik— nafsingiz taskin topib, dilingiz orom oladigan ishdir. Yaxshilik — eskirmaydi.

Kimki bechorahol kishiga yordam bersa, tangri unga ikki dunyoda yordam beradi.

Katta yoshlilar bilan o'tiringlar, olimlardan so'ranglar, donolar bilan oralashinglar.

Xalqimizning milliy madaniyati, urf-odatlarini asrlar davomida davr, sharoit, jamiyat taraqqiyotiga moslashib boradi. Har bir xalqning faxrlanib kiyadigan kiyimlari bor. Milliy marosimlarda, toylarda bunga ko'pchilik amal qiladi. Zamona o'zgarishi mumkin, lekin milliy urf-odatlarimiz o'zgarmaydi. Insonning qay darajada madaniyatligi, odobliligi uning yurish-turishida, kiyinishida ham namoyon bo'ladi. Bunday deyishimizga sabab, ayrim hozirgi yoshlarimiz ko'pchilik joylarda behayolarcha, yarim yalang'och holatda, o'zlaricha zamonaviy uslubda kiyinishlariga ko'zimiz tushadi. Bir donishmand shunday degan ekan: «Odam uchun yarashadigan eng go'zal kiyim — bu odob-axloq» kiyimidir. Xulosa qilib aytganda, inson axloqiy madaniyatini bezaydigan, uning husniga husn qo'shadigan odob-axloqdan ortiq go'zal kiyim bo'lmasa kerak. Bu haqiqatni har bir mo'min-musulmon to'g'ri tushunib, to'g'ri qo'llashi muhim ahamiyatga egadir.

HADISLAR

Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodadan yaxshi, bir kunlik dars esa 3 oy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir.

Ilm ikki xildir: Biri qalbdagi ilm bo'lib, u foydalidir, ikkinchisi tildagi ilm bo'lib, u Alloh huzurida banda nazarida dalil bo'ladi. Qaysi bir olim ilimidan so'ralganda qizg'anib gapirib bermasa, qiyomat kuni og'ziga o'tdan tizgin solib qoyiladi.

Bir soatlik dars ishlanmasidan namuna

Mavzu : Sumalak sayli

O'quv materiali . Navro'z bahor bayrami M. Alaviya .

O'qituvchining maqsadi . 1 O'qituvchilarni “Navro'z bahor bayrami ” matni bilan tanishtirish , ularning navro'z haqidagi tushunchalarini boyitish .

2. Milliy an'analarni hurmatlash va qadrlash, davom ettirish ruhida tarbiyalash .

3. Nutqlarni yangi so'zlar bilan boyitish , og'zaki nutqlarini o'stirish , yaxshi o'qish sifatlarini takomillashtirish .

O'quvchining maqsadi. 1. Matn mazmunini o'zlashtirish.

2. Yangi so'zlar bilan nutqlarini boyitish.

3. Milliy bayramlarimizdan biri bo'lgan Navro'z urf-odatlarini o'zlashtirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Darsning metodi. Suhbat, ifodali o'qish, aqliy hujum.

Darsning ihozi. Navro'z bayrami tantanalari, urf-odatlari aks ettirilgan rasmlar, kartochkalar va testlar, magnitofon.

Darsning borishi.

- 1. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash:** 1. «Erkacholning o'rigi» hikoyasi yuzasidan suhbat, savollar «Erkacholning o'rigi» hikoyasi nima uchun voqeyiy hikoya deyilgan? Yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev bobosi haqida nimalar deb yozadi? Hikoya nima uchun «Erkacholning o'rigi» deb nomlangan?
2. Turli topshiriqlar asosida hikoya matnini o'qitish.
3. Oiladagi bahorgi ishlar yuzasidan suhbat.
4. Mehnat haqida maqollar aytish musobaqasi.

II. Yangi mavzu. 1. O'quvchilarni asarni o'qishga tay-yorlash. O'quvchilar, bahor qanday fasl? Bahor faslida qaysi bayramlar nishonlanadi? 2. Milliy bayram xalq bayrami deganda nimani tushunasiz?

Aqliy hujum. Savol: Navro'z bayrami nima uchun 21-martda, deb nishonlanadi?

— 21- martda kun-tun tenglashadi.

— 21- martdan yangi kun boshlanadi; Navro'z bayrami haqida nimalar bilasiz?

— Bugun qaysi mavzudagi asarni o'qir ekanmiz?

— Bugun siz bilan Olima Muzayyana Alaviyaning Navro'z bayrami haqidagi asari bilan tanishamiz. Olimaning adabiyot soha-sida amalda oshirgan ishlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

2. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish. Matn magnitofon orqali eshittiriladi. Doskaga asar mazmunini ifodalovchi rasmlar ilib qo'yiladi.
3. Asar mazmuni yuzasidan dastlabki suhbat. — Asar nimalar haqida ekan?
4. Matnni o'quvchilarga topshiriqlar asosida o'qitish. Ilmiy-ommabop asarning murakkabligi tufayli sinf o'quvchilari to'rt guruhga ajratiladi. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi. Masalan. 1- guruh «Bilag'onlar», 2- guruh «Navro'z», 3- guruh «Topqirlar», 4- guruh «Bahor».

Matn yuzasidan topshiriq kartochkalarda guruhlarga tarqatiladi: 1. Erta bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi? Yerlar haydaladi; ko'chalar tozalanadi. 2. Navro'z kunlari qanday ishlar qilinadi? Idish- tovoqlar yuviladi; ariqlar qaziladi; hammayoq supiriladi. 3. Navro'zda qanday taomlar pishiriladi? 4. Bahorda ochiladigan qanday gullarni bilasiz?

Savollarga matndan javob topib yozadilar.

To'ldirilgan kartochkalar yig'ib olinib, bir nechasi ovoz chiqarib o'qitilib tahlil qilinadi.

5. Lug'at ishi.

O'quvchi matndagi ma'nosi, imlo va talaffuzi ustida ishlanishi lozim bo'lgan quyidagi so'zlarni awaldan doskaga yozib qo'yadi. Suhbat yo'li bilan ularning ma'nosi oydinlashtiriladi:

singiydi — shimiladi;

kurtaklari yozilib — kurtaklari ochiladi;

bo'g'ot — uy tomining pastki qismi;

sumalak — tarnovlardagi osilgan muzlar;

yosh to'kmoqda — erimoqda.

6. Tanlab o'qish. Bahor tabiati tasvirlangan o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. Bahorda dehqonlarning mehnat faoliyati bayon etilgan o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. Navro'z kuniga odamlar qanday tayyorgarlik ko'radilar? Shu o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. Navro'zda tug'ilgan farzandlarga qaysi ism qo'yiladi?

Shu gaplarni topib o'qing: Navro'zda qariyalar qanday tilak bildiradi? Shu o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalab bering. Siz, bolalarga qarata aytilgan fikrlarni topib o'qing va qayta hikoyalang.

7. Reja tuzish. O'qituvchi suhbat asosida oquvchilar bilan birgalikda reja tuzadi.—Matnni necha qismga bo'ldik? Reja necha qismli bo'lishi mumkin? 1-qismni o'qing, unga reja tuzing.

Reja.

1. Yilning o'z umrini yangilashi.
2. Dehqonchilik ishlarining boshlanishi.
3. Navro'z bayramining nishonlanishi.
4. Navro'z bayramidagi milliy an'analar.
5. O'qituvchilarning bolalarga istaklari.

Topshiriq. Uyda asarni o'qib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib keching.

8. Test sinovi.

9. Mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish: Navro'z bayramida qatnashib va asarni o'qib nimalarni bilib oldingiz? Navro'zni nishonlash uchun bolalar nimalar qiliadi? Navro'z bayrami kabi xalq an'analarini saqlab qolish ushuni nimalar qilishingiz lozim?

10. Uyda oila a'zolaringiz bilan Navro'z haqida suhbat-lashing, bilimingizni yanada boyiting. Matnni o'qib, qayta hikoyalashga tayyorlanib keling.

11. O'quvchilar faoliyatini baholash.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, o'zbek xalqining uzun o'tmishi davomida turli marosim va urf-odatlar shakllangan bo'lib, ularda xalqimizning dunyoqarashi, hayotiy voqelikka munosabati, orzu-istaklari va umuman ma'naviy dunyosi o'ziga xos in'kos etilgandir. Shuningdek, ko'p asrlik tarix jarayonida xalqimizning dunyoqarashi bilan bog'liq ma'lum o'zgarishlar ham bo'lib turganki, buning oqibatida ba'zi marosimlar unutilib yuborilgan. Ana shunday marosimlarning aksariyati ko'xna hayotga taaluqli bo'lib, yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'liq holda o'tkazilar edi.

Mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng ko'r namunalari go'zal bahor fasli va undagi asosiy sana-Navro'z bayramiga bog'liq ijod etilgan. E'tiborli joyi shundaki, bu toifa namunalar asosan bolalar folklori tarkibida bizgacha yetib kelgan. Chunki bolalar ham kattalar qatorida aksariyat marosimlarda qatnashib kelganlar. O'rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul etishi munosabati bilan g'ayri e'tiqodga asoslangan marosimlar o'zining ijtimoiy mohiyatini yo'qotata boshladi. Ammo bir qator marosimlarning ma'lum voqelik oyinlariga asoslanganligi pirovardida bolalar tabiatiga nihoyatda mos edi va shu jihatdan ham ular faoliyatida saqlanib qolgan. Xususan, «Boychechak», «Laylak keldi», «Qaldirg'och», «Chitti gul», «Oq terakmi ko'k terak» kabi hozirda ma'lum oyin-qo'shiqlar shu tarzda bizgacha yetib keldi. Endilikda ko'proq badiiy qiziqish uyg'otayotgan yana bir qator mavsumiy marosimlar esa (jumladan, Sust xotin, Shox moylar, Arg'imchoq va b. folklor-etnografik ansamblari tomonidan qayta tiklanib, «sahnaviy» ko'rinishlarda ijro etila boshlandi. Shuni aytish ham kerakki, bu marosim endilikda o'z mavqeini yqotgan bo'lsada, ammo ular ijtimoiy badiiy tafakkur rivojida ma'lum ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o'rinda mavsumiy marosim aytimlariga xos bo'lgan jihatlarni ta'kidlab o'tish joizdir. Xususan ularda nisbatan keng hajmli kuylar shakl topdi, ovoz doirasi aktavaga qadar ortib bordi hamda ushbu kuylar asosida yangi sifatli ohang tuzilmalar yuzaga keldi.

Bahor fasliga oid aytmimlarda ba'zi jarchi ohanglarni mehnat(dehqonchilik) qo'shiqlariga payvasta bo'lishini ham ko'rish mumkin. Bu hol bejiz emas, chunki

bahor fasli yerga amal kirishi vaqtini (ya'ni mehnatning boshlanganini) ham daraklaydi. Dehqonlar yer haydash ishlarini Navro'z bayramiga taqab boshlaganlar. Bu mehnatning debochasida «Qo'sh chiqarish» yoki «Shox moylar» marosimi o'tkazilgan. Bunda qishloq ahli yig'ilishib, eng yaxshi ho'qizlarda bir juftini omochu boyinturug'i bilan dalaga olib chiqishardi. -Bu yil mo'l-ko'lchilikda yashaylik, serobchilik bo'lsin, oyog'ing tekan joyga barak bersin! deb Navro'zga atab pishirilgan bo'g'risoq yog'i bilan ho'kizlarning shoxlarini moylashgan. Sumalak pishirish chun undirilgan maysadan ozginasini ho'kizga yedirishgan. Qishloq keksalaridan biri Bobo Dehqon bo'lib, dalada birinchi qo'sh soladi. Ushbu marosim paytida ishtrokchilar tomonidan maxsus qo'shiq aytib tikilgan. Bu qo'shiqda, bir tomondan, dehqonchilik aytimlariga xos xususiyatlar sezilsa, ikkinchi tomondan-ko'proq marosim aytimlariga taalluqli yakka-yakka ijrochiligi, to'rtlik (darakchi) ohang sakramalari va h.k namoyon bo'ladi.

Insonning hayotiy yo'li bilan bog'liq muhim sana va voqealar har xalqda o'ziga xos tarzda urf-odat yoki marosimlar bilan nishonlab turilishi an'anaga aylangan. Ana shunday an'analar sirasini oilaviy sharoitda o'tkazilgan ommaviy tadbirlar tashkil etadi.